

"TASDIQLAYMAN"

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi



Qashqadaryo viloyati hududiy
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,
Tanlov komissiya raisi

F.Sharapov

2025-yil «__»-iyul

«Yerelektron» AATga kiritiladigan yer uchastkalarini
topografik xaritasini ishlab chiqish yuzasidan

TEKNIK TOPSHIRIQ

Ishlab chiqish uchun asos: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qaroriga asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarni auksion savdolariga chiqarish uchun topografik xaritasini ishlab chiqish.

Kompleks topografik-geodezik ishlar.

Topografiya-geodeziya ishlarini ishlab chiqarish uchun asos:
«Yerelektron» ATTdan kelgan buyurtmalarni tizim orqali bajarish.

Ishning maqsadi: qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish uchun.

– Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari topografik xaritasini har bir lot uchun geodezik tayanch reperlarini o'rnatish;

– 1:500 masshtabli va relyef kesimi 5 metr bo'lgan toposyomka ishlarini bajarish;

– Yer osti kommunikatsiyalarini qidirish va syomka qilish;

– GNNS yordamida aniqlangan punktlar koordinatalarini tenglash;

– syomka materiallarini qayta ishlash;

– 1:500 masshtabli elektron raqamli planlar yaratish;

– yer osti kommunikatsiya tarmoqlari planlarini yaratish va chizish;

– elektron raqamli planlar yaratish va chop etish;

– koordinatalar katalogini tuzish;

– texnik loyixa tayyorlash;

– elektron yaratilgan topografik syomkalar uchun GNNS stansiyalaridan foydalanib RTK rejimida topografik syomkalarni yaratish.

Ish turlari va hajmlari: Qashqadaryo viloyatining barcha tuman (shahar)lari hududlaridan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan **150 (bir yuz ellik)** dona yer uchastkalariga, yer uchastkasining hajmidan qat'iy nazar g'olib oferent ("Ish bajaruvchi") tomonidan (jami yer uchastkalari uchun) taklif etilib, yutib olingan narxlarda topografik xaritalarini tayyorlash, yer uchastkalari bo'yicha topografik xaritalarini ishlab chiqish ishlarini boshlash muddati — bosqichma bosqich "Yerelektron" AATga kiritilgan yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlar "Ish bajaruvchi"ga jo'natilgan sana hisoblanadi va bunda, amalda yer uchastkalarini "Yerelektron" AATga kiritishning statistik ko'rsatgichlaridan kelib chiqqan holda, **150 (bir yuz ellik)** dona yer uchastkasi bo'yicha ma'lumotlar to'liq (bir yo'la) jo'natilmaydi, yer uchastkasi bo'yicha ma'lumotlar qismlarga bo'lingan holda bosqichma-bosqich jo'natiladi va "Ish bajaruvchi" topografik xaritani unga yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlar jo'natilgan sanadan e'tiboran, yer uchastkalarining sonidan qat'iy nazar, **7 (yetti) ish kuni muddatda ishlab chiqishi, yakunlashi va hududiy boshqarmaga taqdim etilishini ta'minlashi shart.** (Ilova qilinayotgan ruyxatdagi ba'zi tumanlar o'zgarishi mumkin)

(Handwritten signatures)